

Transplantologiyani rivojlantirish choralari muhokama qilindi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-sentabr kuni xirurgiya xizmatini transformatsiya qilishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Yurtimizda yiliga o'rtacha 750 mingta jarrohlik amaliyoti bajariladi. Jahon tibbiyoti yutuqlari o'rganilib, zarur sharoitlar yaratilayotgani natijasida respublika markazlarida qilinadigan operatsiyalar turi 350 taga, viloyat markazlarida 130 taga, tuman shifoxonalarida 60 taga yetdi. 32 ta shifoxonada zamonaviy endovaskulyar xirurgiya bo'limlari tashkil etilgan.

Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bu yo'nalishdagi asosiy muassasadir. Hududlarda uning 14 ta filiali faoliyat yuritmoqda.

Taqdimotda ushbu markazning tibbiy-ilmiy salohiyati, hududlarda o'tkazilgan ko'riklar natijalari haqida ma'lumot berildi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturida tuman va shahar tibbiyot birlashmalari negizida 35 ta tumanlararo qo'shma shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari tashkil etilishi belgilangan edi. Shu maqsadda joriy yil 26-iyulda davlatimiz rahbarining "Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bugungi kunda ushbu markazlar bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Ularning har biri 50 o'ringa ega bo'ladi. Zamonaviy jihozlanadigan bu markazlar yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini tumanlarning o'zida bajarish imkonini beradi.

Taqdimotda shu borada amalga oshirilayotgan ishlar Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi shifoxona misolida ko'rib chiqildi. U Oqoltin, Sardoba va Mirzaobod tumanlari aholisiga xizmat ko'rsatadi. Prezidentimiz qaroriga muvofiq, markaz yaqinda 1 million dollarlik asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Hozirgi

paytda telemeditsina muloqotlari tashkil etilib, shifokorlar malakasi oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tumanlararo markazlarda qilinadigan jarrohlik amaliyotlari turini 79 taga, viloyat darajasida 168 tagacha yetkazish mumkinligini ta'kidlab, buning uchun zarur sharoit yaratish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Bugun eng kerakli yo'nalishlardan biri - organlar transplantatsiyasi. Keyingi yillarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilib, huquqiy-tashkiliy asoslar yaratilmoqda. Xususan, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida kardiojarrohlik, transplantologiya va neyro-qon-tomir jarrohligi bo'limlari uchun yangi bino qurilmoqda.

Yurtimizda 500 nafar bemor jigar, 1 ming 500 nafar kishi buyrak transplantatsiyasi amaliyotiga muhtojligini bildirmoqda. Jarrohlik bo'limlarining jihozlanishi talab darajasida emasligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, immunogenetik tekshiruvlar laboratoriyasi yo'qligi soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois Respublika xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini transplantologiyaga yo'naltirib, immunogenetik laboratoriya va simulyatsion markaz tashkil etish, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida buyrak transplantatsiyasini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari ilg'or texnologiyalar asosida tashxislash, operatsiya qilish va davolash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, chet ellardagi yetakchi tibbiyot muassasalariga malaka oshirishga yuborish zarurligini ta'kidladi.

Moliya vazirligiga bu maqsadlar uchun zarur mablag' ajratish, transplantolog jarrohlarga ish haqini tabaqalashtirilgan tarzda to'lash tizimini joriy qilish vazifasi qo'yildi.







Manba